

Madaniy meros agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish SIYOSATI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati (keyingi o‘rinlarda – Siyosat deb yuritiladi) xodimlar orasida hamda jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini oshirish maqsadida yuqori axloqiy me‘yorlarga sodiqlik, shuningdek, Madaniy meros agentligi markaziy apparatining tarkibiy tuzilmalari, hududiy boshqarmalar va tasarrufidagi tizim tashkilotlari (bundan buyon matnda Agentlik tizimi) xodimlari faoliyatida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga murosasizlik va ularni sodir etishga yo‘lqo‘ymaslikni aks ettiradi.

2. Siyosat ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari–foydalanish bo‘yicha talablar va tavsiyalar” xalqaro standarti talablarini inobatga olgan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va yetakchi xalqaro amaliyot asosida O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

3. Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

Agentlik tizimida korrupsiyani tubdan yo‘qotishga erishish;

aholining, ayniqsa Agentlik tizimi xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosabatni shakllantirish;

Agentlik faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, ularning oqibatlari, ularga olib keluvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini ta‘minlash.

4. Siyosat Agentlikning ichki hujjati sifatida yuqorida ko‘rsatilgan asosiy maqsadlarga erishish uchun Agentlik tizimi faoliyatida korrupsiyabilan bog‘liq huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga barham berishga qaratilgan

asosiy talablar va tamoyillarni belgilab beruvchi asos hisoblanadi.

5. Mazkur Siyosatning talablari egallab turgan lavozimi va bajaradigan vazifa va funksiyalaridan qat'i nazar Agentlik bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan barcha xodimlarga, shu jumladan, Agentlik tizimi xodimlariga tadbiiq etiladi.

6. Agentlik tizimiga ishga qabul qilinayotgan har qanday shaxs mazkur Siyosat bilan imzo qo'ygan holda tanishishga va uning qoidalariga rioya qilishga majbur.

7. Siyosatda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

aloqador shaxslar–xodim bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi holatlari bundan mustasno;

ish jarayonidagi mehmondo'stlik belgisi – Agentlik tizimi manfaatlarida faoliyat davomida hamkorlik ko'rsatish va (yoki) qo'llab-quvvatlashga aloqador xarajatlar, jumladan ishbilarmonlik bilan bog'liq ovqatlanish, transport va yashash xarajatlarini qoplash bilan bog'liq xarajatlar va h.k.;

korrupsiyaga qarshi kurashish talablari buzilganligi to'g'risida vijdonan xabar berish – Agentlik tizimi xodimi tomonidan korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etilganligi (*sodir etishga suiqasd qilinganligi*) to'g'risida rusxat etilgan aloqa kanallari orqali asoslilikiga ishonch hosil qilgan holda yo'llagan murojaat;

kontragent (shartnomaviy sherik) – Agentlik tizimi bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaviy harakatlar – Agentlik tizimi xodimi tomonidan pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab harakat yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali porani ya'ni pul, qimmatbaho qog'ozlar, boshqa mol-mulkni, mulkiy tusdagi xizmatlarni, boshqa mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, taklif qilish, va'da qilish va berish, shuningdek, pora berish va (yoki) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlarni olish, xodim tomonidan pora olish yoki huquqqa xilof boshqa maqsadlarda o'z xizmat mavqeyidan noqonuniy

foydalanish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaviy xavf-xatar – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi – qo‘llaniladigan amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlarning korrupsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, Agentlik tizimi xodimlari tomonidan yuqori darajada kasbiy va axloqiy faoliyat olib borishlarini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar majmui;

manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan yoxud ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlar o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi) vaziyat;

rasmiyatchilikni soddalashtirish uchun to‘lovlar – belgilangan tartib-taomillar bajarilishini ta‘minlash yoki tezlashtirish, tegishli qonunchilik, normalar va qoidalarda nazarda tutilmagan harakatlar sodir etish uchun g‘ayriqonuniy ravishda beriladigan pul mablag‘lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar va boshqa moddiy yoki nomoddiy naf;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – Agentlik tizimi xodimi tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo‘lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (*shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlarini*);

xodim – Agentlik va tizim tashkiloti bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs;

yaqin qarindoshlar – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

2-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari

8. Agentlik tizimi korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini quyidagi tamoyillarga asoslanib amalga oshiradi:

qonuniylik – Agentlik tizimi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga qat'iy rioya qilgan holda, shuningdek davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tan olingan xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Agentlik tomonidan qabul qilingan ichki hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi;

korrupsiyaga toqatsizlik – Agentlik tizimi o'z faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning har qanday shakllari va ko'rinishlariga murosasiz munosabatda bo'ladi. Xodimlarga korrupsiyaviy xavf-xatar kelib chiqishi mumkin bo'lgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish taqiqlanadi;

ochiqlik va shaffoflik – Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida xodimlar va kontragentlarni, shuningdek, keng jamoatchilikni xabardor qilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning preventivligi, tizimliliigi va o'zaro bog'liqligi – Agentlik tizimi korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishiga va korrupsiyaviy xavf-xatarlarga ko'maklashuvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan preventiv chora-tadbirlarni amalga oshirishga ustuvor ahamiyat beradi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va tartib-taomillar aniqlangan xavf-xatarlar darajasiga muvofiq kelishi hamda Agentlikning barcha funksiyalari va yo'nalishlariga integratsiya qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga birlashtirilishi;

korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarliligi – korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni sodir etgan Agentlik tizimi xodimlari o'zining maqomi va egallab turgan lavozimidan qat'i nazar Agentlikning ichki hujjatlari va amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar;

texnika taraqqiyotining yutuqlaridan foydalanish – Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yaratishda ilm-fan taraqqiyotining so'nggi yutuqlaridan, shu jumladan, integratsiyalashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanishga intiladi;

to'g'ridan-to'g'ri rahbariyatga murojaat qilish – Agentlik tizimining har bir xodimi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilganligi to'g'risida ishonchli va asosli ma'lumotlar mavjud bo'lganda belgilangan choralarni ko'rish uchun to'sqinliksiz rahbari va Agentlik direktoriga murojaat qilishi mumkin;

fuqarolik jamiyati vakillari bilan o‘zaro hamkorlik – Agentlik o‘ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishda Agentlik tizimi faoliyatini halollik, xolislik va mustaqillik asosida mustaqil nazorat qilish maqsadida fuqarolik jamiyati vakillarini jalb etadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish – korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni amalga oshirish natijalariga ko‘ra Agentlik o‘z tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini to‘xtovsiz ravishda oshirish choralari ko‘radi.

3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining elementlari

9. Korrupsiyaga “mutlaqo toqatsizlik” tamoyiliga tayangan holda Agentlik tizimining barcha xodimlariga korrupsiya bilan bog‘liq har qanday xatti-harakatlarda ishtirok etishi, ya’ni pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab harakat qilishi yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora, ya’ni pullar, qimmatbaho qog‘ozlar, boshqa mol-mulk, mulkiy tusdagi xizmatlarni berishni talab qilish, tovlamachilik qilish, va’da berish va pora berish, pora berish va (yoki) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlarni olish, shaxs tomonidan pora olish yoki g‘ayriqonuniy boshqa maqsadlarda o‘z xizmat mavqeyidan noqonuniy foydalanishi qat’iyan taqiqlanadi.

10. Quyidagilar Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining asosiy elementlari hisoblanadi:

a) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha asosiy ichki hujjatlar mavjudligi;

Bunda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining asosini:

mazkur Siyosat;

Agentlik xodimlarining odob-axloq qoidalari;

manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi nizomda aks ettirilgan tamoyillar va talablarni tashkil etadi;

b) “Yuqoridan quyiga munosabat” – Yuqori darajada rahbarlik namunasi:

Agentlik rahbariyati, Agentlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlari, shuningdek Agentlik tizimi rahbarlari bo‘ysunuvidagi xodimlar, fuqarolar va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda halol, adolatli munosabatda hamda namunaviy xulq-atvorga ega bo‘lishlari kerak;

Agentlik tizimidagi barcha darajadagi rahbarlar korrupsiyaga qarshi kurashish samarali tizimini yaratish va amalga oshirishda quyidagilar orqali

siyosiy irodani namoyish etadilar:

Agentlik faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatar mavjud vazifa, soha va funksiyalarni boshqarishda samarali chora-tadbirlar va tartiblarni joriy etishda, jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish dasturini (*yo'l xaritasini*) ishlab chiqish va uning ijrosini nazorat qilish orqali ko'maklashish;

o'z lavozim majburiyatlarini bajarish doirasida, Agentlik tizimi xodimlarida korrupsiyaning barcha shakllari va ko'rinishlariga murossasiz munosabatni shakllantirgan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilik normalari va qabul qilingan ichki hujjatlarga rioya qilish;

xodimlar, jismoniy va yuridik shaxslar bilan muloqotda axloqiy xulq-atvor yuzasidan shaxsan namuna sifatida namoyon bo'lish;

v) korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul shaxslar va bo'linmalar:

Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiyaviy xavfni aniqlash va baholash Agentlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi tomonidan tizimli ravishda amalga oshiriladi.

Mazkur jarayonga Agentlik tizimi rahbarlari hamda boshqa taalluqli tarkibiy tuzilmalar ham faol jalb etiladi.

Agentlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda yetarli darajada mustaqillikka va muhim resurslarga ega bo'lib, bevosita Agentlik direktoriga bo'ysunadi va o'z faoliyatini Agentlik direktori tomonidan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni samarali va o'z vaqtida amalga oshirilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish uchun Agentlikning hududiy boshqarmalari va tizim tashkilotlarida ruxsat etilgan lavozimlarga korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish funksiyasi yuklatilishi mumkin. Korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish funksiyalari hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlarida yuqori darajada korrupsiyaviy xavf-xatarga ega bo'lmagan, shuningdek, yetarli darajada mustaqil bo'lgan xodimiga yuklatiladi;

hududiy boshqarmalari va tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtiruvchilari korrupsiyani bartaraf etish choralari ko'radi, shu bilan birga, o'ziga yuklatilgan vazifalar doirasida Agentlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi bilan hamkorlik qiladi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda Agentlik markaziy apparatida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi va Inson

resurslarini rivojlantirish bo'limi, hududiy boshqarmalari va tizim tashkilotlarida esa korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish funksiyalari yuklatilgan xodimlar Agentlik tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom va O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari normalariga muvofiq belgilangan tartibda va hajmda xodimlar va aloqador shaxslarning yaqin qarindoshlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida va tizimli yig'ish, tahlil qilish va yangilab borish uchun javobgar bo'ladi;

Bundan tashqari, Agentlik tizimidagi odob-axloq komissiyalari xodimlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida kelib tushgan ma'lumotlarni ko'rib chiqadi va (manfaatlar to'qnashuvi tartibga solinmagan taqdirda) uni hal qilish bo'yicha qaror qabul qiladi yoki aniqlangan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha ko'rilgan choralarning yetarliligi yoxud yetarli emasligi to'g'risida qaror qabul qiladi, shuningdek, Agentlik tizimi tomonidan belgilangan odob-axloq qoidalariga rioya qilinishi masalalarini ko'rib chiqadi. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish doirasida Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi hamda Odob-axloq komissiyalari (yoki shunga o'xshash komissiyalar) Agentlik tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida ish yuritadi.

g) korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash va baholash:

Agentlik funksiyalarining xususiyati, tashkiliy tuzilmasi, jamiyat va boshqa shaxslar bilan o'zaro faoliyat olib borishiga hamda boshqa ichki va tashqi omillarga bog'liq holda o'z faoliyatiga xos bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlaydi va baholaydi;

korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash va baholash doirasida Agentlik faoliyatining barcha sohalari korrupsiyaviy xavf-xatariga ko'proq uchraydigan funksiyalarni aniqlash maqsadida tahlil qilinadi, ularda mavjud bo'lgan korrupsiyaga qarshi kurashishni nazorat qilishning barcha shakllari va tartib-taomillari aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish uchun yetarliligi jihatidan tahlil qilinadi. Xavf-xatarlarni aniqlash va baholash jarayonida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limining faol qo'llab-quvvatlashi va nazorati ostida Agentlik markaziy apparati tarkibiy tuzilma rahbarlari va mas'ul xodimlari, korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtiruvchi shaxslar ishtirok etadi;

Agentlik tizimi korrupsiyaviy harakatlarga murosasiz munosabatda bo'lishini hisobga olgan holda faoliyatida ko'limi va ta'sir qilish darajasidan qat'iy nazar korrupsion xavfni boshqarish zaruratini tan oladi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash yiliga kamida bir marta amalga

oshiriladi. Baholash natijalari Agentlik va tegishli rahbarlar tomonidan ko'rib chiqiladi;

aniqlangan xavflarni boshqarish minimallashtirish hamda uning asosiy omillarini bartaraf etish choralari Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tegishli chora-tadbirlari, ish rejaları yoki yo'l xaritalarida aks ettiriladi;

d) aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtiruvchi korrupsiyaga qarshi kurashish choralari:

Agentlik o'z faoliyati va funksiyalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarli yo'nalishlarda umumiy nazorat muhitini va korrupsiyaga qarshi kurashish nazorat hamda tartib-taomillarni o'z ichiga oluvchi korrupsiyaga qarshi kurashishning kompleks tizimini joriy etadi;

Agentlik korrupsiyaga qarshi kurashishni nazorat qilish va tartib-taomillarning samaradorligi, jumladan, ularning aniqlangan xavf-xatar darajasiga mutanosibliği, Agentlik tizimi xodimlari uchun qat'iyliği va aniqliği, fuqarolik jamiyati uchun shaffofliğini ta'minlaydi;

amalga oshiriladigan tadbirlar, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha nazorat choralari va tartib-taomillar Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha me'yoriy hujjatlarida (*chora-tadbirlar dasturi, ish rejasi, yo'l xaritasi*) aks ettiriladi hamda tegishli ichki hujjatlarda belgilanadi;

y) axborotlashtirish, kommunikatsiya va maslahat berish:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va Agentlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va talablari haqida jamiyatning xabardorligini oshirish maqsadida, mazkur Siyosat va Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlari to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar Agentlikning rasmiy veb saytiga joylashtiriladi.

Xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, ularni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik hujjatlari bilan tanishtirish maqsadida:

Agentlik tizimi xodimlarini har yili kamida bir marotaba korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari bo'yicha doimiy va tizimli o'qitish, shu jumladan, ishga yangi qabul qilinayotgan xodimlarni ushbu Siyosat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha boshqa ichki hujjatlar bilan majburiy tartibda tanishtirish bilan birgalikda ular korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiy kurslarda o'qitiladi. Korrupsiyaviy xavf- xatari yuqori bo'lgan lavozimlar uchun Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qo'shimcha ta'lim dasturlari belgilanadi. O'tkazilgan o'qish (*training*)lar haqidagi ma'lumotlar Inson resurslarini rivojlantirish

va boshqarish bo'limida (qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda saqlanadi;

Agentlik tizimi xodimlari va fuqarolarda korrupsiyaga nisbatan muhosabatini shakllantirish maqsadida audio va videoroliklar hamda boshqa axborot ma'lumotlaridan foydalangan holda profilaktik tadbirlar tashkil qilinadi;

Agentlik tizimi xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi ma'lumotlar bo'yicha xabar berilishi mumkin bo'lgan aloqa kanallari tashkil qilinadi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi mazkur Siyosat qoidalarini qo'llash yoki korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtiruvchi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlar va tartib-taomillarni amalga oshirish bilan bog'liq savollar kelib chiqqanda Agentlik tizimi xodimlariga maslahatlar beradi;

Agentlik tizimi xodimlarining mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalari kiritiladi;

tasdiqlangan rejaga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul shaxs tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish xulq-atvor yuzasidan tashviqotlar o'tkaziladi;

kontragentlar korrupsiyaga qarshi kurashish, qabul qilingan talablar va tamoyillar haqida, shu jumladan, ular bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus shartlar kiritilishi to'g'risida xabardor qilinadi va hokazo;

j) monitoring, nazorat va hisobot:

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarning ishlab chiqilishini, mutanosibli va samaradorligini baholaydi hamda doimiy monitoringini olib boradi. O'tkazilgan monitoring natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tegishli choralarni ko'radi.

Agentlik tizimida monitoring va nazorat qilishning quyidagi tartib-taomillari amalga oshiriladi:

Agentlik tizimi faoliyati va funksiyalaridagi o'zgarishlar, ularning tashkiliy-funksional tuzilmasidagi o'zgarishlar hamda boshqa ichki va tashqi omillarning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga ta'sirini, mazkur tizimga o'zgartirish kiritish zaruriyatini tahlil qilish, shu jumladan, uni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta'minlash;

samarasiz tartib-taomillarni aniqlash, tegishli o'zgartirishlar kiritish va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ishonchliligi va samaradorligini

ta'minlash maqsadida tanlov asosida Agentlik tizimidagi funksiyalar va ichki jarayonlarni monitoring qilish;

ichki va (yoki) tashqi tekshiruvlarni o'tkazish jarayonida Agentlik tizimi xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha talablarga rioya qilinishini nazorat qilish.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini nazorat qilish va monitoringi bo'yicha chora-tadbirlar natijalari Agentlik Hay'ati yig'ilishi yoki Agentlik direktori boshchiligida o'tkaziladigan xizmat yig'ilishlarida muhokama qilinishi mumkin.

z) huquqbuzarliklarga nisbatan munosabat bildirish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish:

mazkur Siyosat va Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlariga rioya qilish har bir xodim uchun o'z xizmat majburiyatlarining bajarilishi doirasida majburiydir. Xodimlar belgilangan talab va tartib-taomillarni buzganligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi;

Agentlik markaziy apparati tarkibiy tuzilma rahbarlari, shuningdek tizim tashkiloti rahbarlari o'z bo'ysunuvidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sodir etilishini oldini olishga mas'ul hisoblanadi;

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid belgilangan talablar va tamoyillarni buzgan har bir xodim O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladi;

xodimlar ularni korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarlikni sodir etishga undovchi shaxslarning har qanday murojaatlari to'g'risida, shuningdek, boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida o'ziga ma'lum bo'lgan har qanday faktlar haqida o'z rahbariga, Agentlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishlari shart;

xodimlarning korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishlari bilan bog'liq har qanday asosli shubha bo'yicha xizmat tekshiruvlari O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq va ichki hujjatlarda belgilangan tartibda o'tkaziladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari normalarini, mazkur siyosat va boshqa ichki idoraviy hujjatlarda belgilangan korrupsiyaga qarshi talab va tartib-taomillarni buzgan Agentlik tizimi xodimlari, ularning lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida hamda Agentlikning ichki idoraviy hujjatlarda nazarda tutilgan doirada va asoslarda javobgarlikka tortiladilar;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik aniqlangan taqdirda ularning sodir etilishiga sabab bo'lgan omillar va shart-sharoitlar tahlil qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi doimiy ravishda takomillashtirib boriladi;

Agentlik, shu jumladan, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash va tekshirishda, vakolat doirasida huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa vakolatli davlat organlari bilan hamkorlik qiladi.

4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo'nalishlari

§1. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish

11. Agentlik tizimi xodimlari o'z xizmat majburiyatlarini bajarish va (yoki) Agentlik manfaatlarini ifodalash doirasida vijdonlilik va halollik tamoyillariga amal qilishi, shaxsiy manfaatlarini hisobga olgan holda o'zlarining xizmat mavqeyidan va (yoki) Agentlikning mol-mulkidan foydalanmaslik va manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan saqlanishlari lozim.

Agentlik tizimi xodimlarining o'zlarining xizmat majburiyatlarini lozim darajada va xolis bajarishlariga, jumladan, xolis qaror qabul qilishga hamda Agentlikning huquqlari, qonuniy manfaatlari, mol-mulki va (yoki) nufuziga ta'sir qiladigan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan vaziyatda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga keladi.

Agentlik tizimining har bir xodimi xizmat vazifalarini bajarish chog'ida vujudga kelgan yoki vujudga kelishi ehtimoli mavjud manfaatlar to'qnashuvi haqida o'zining bevosita rahbariga zudlik bilan xabar berishi shart.

12. Agentlik tizimining xodimlari ishga qabul qilinishida, boshqa lavozimga o'tkazilishida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorligi haqidagi ma'lumotlarni har yili va tegishli vaziyatlar (*holatlar*) yuzaga kelishiga qarab oshkor qilishga majburdirlar.

13. Agentlik tizimi xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish va uni hal qilish jarayoni manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom bilan tartibga solinadi.

§2. Sovg'alar va ish jarayonida mehmondo'stlik belgilari

14. Agentlik tizimi xodimlariga o'z xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq holda jismoniy va yuridik shaxslardan biron-bir sovg'a yoki ish jarayonida mehmondo'stlikning belgilari, qarz, kafolatlar, kafilliklar, mukofotlar

shaklida rag'batlantirish vositalarini, naqd pul mablag'lari yoki ularning ekvivalenti, qimmatli qog'ozlar ko'rinishida moddiy yordam qabul qilish taqiqlanadi.

15. Xodimlar tomonidan rasmiy delegatsiyalar tarkibida, rasmiy tadbirlarda, jumladan xorijiy xizmat safarlarida sovg'alarning olinishi va tasarruf etilishi "Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risida"gi Nizomga (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 13 martda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami: 3425*) muvofiq amalga oshiriladi.

Xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlarda Agentlik tizimi xodimi sovg'ani qabul qilish jarayonida sovg'a beruvchidan sovg'aning qiymatini tasdiqlovchi hujjatlarni (*sovg'aning qiymatini tasdiqlovchi savdo chekini yoki savdo kvitansiyasini yoxud boshqa hujjatlarni*) so'rab olishi mumkin.

16. Xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan Agentlik tizimi xodimlariga taqdim etilgan tez yaroqsiz holga keluvchi mahsulotlar (tabiiy guldasta, donalik shirinliklar), shuningdek kanselyariya to'plamlari (taqvim, buklet, plastmassali ruchka, kundalik va bloknot) sovg'a sifatida rasmiylashtirilmaydi hamda ushbu sovg'alar xodim tomonidan o'z xohishiga ko'ra tasarruf etiladi.

17. O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkaziladigan xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar bilan bog'liq bo'lmagan xizmat safarlari munosabati bilan Agentlik tizimining xodimlari sovg'a olishi taqiqlanadi.

18. Agentlik tizimi xodimlari xizmat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holatlarda:

bevosita o'rganish (tekshirish) o'tkazilayotgan tizim tashkiloti xodimlarining taklifiga ko'ra, shuningdek, xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodim bilan birga umumiy ovqatlanish (*restoran, bar, kafe, choyxona va boshqalar*) hamda ko'ngilochar joylarga birga borish;

Agentlik tizimining boshqa xodimi hisobidan transport va yashash xarajatlarini qoplash bilan bog'liq xarajatlarni amalga oshirish taqiqlanadi.

19. Agentlik tizimi xodimlariga ularning shaxsi bilan bog'liq bayramlar (*tug'ilgan kun, farzand tug'ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni*)da berilgan, xizmat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lmagan sovg'alar xodimning shaxsi bilan bog'liq sovg'alar deb tan olinadi.

Bunday sovg'alarni berishda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:
sovg'alar kamida uch nafar xodimlar ishtirokida berilishi;

sovg'a berish jarayoni tabrik nutqi bilan birga bo'lishi, unda sovg'a berishga sabab bo'lgan voqea o'zining aniq ifodasini topgan bo'lishi;

sovg'aning umumiy qiymati (barcha soliqlar va yig'imlarni hisobga olgan holda) **bazaviy hisoblash miqdorining 5 (besh) baravaridan** oshmasligi;

bir xodimning boshqa xodimga sovg'a uchun sarflaydigan xarajat summasi, har bir holatda **bazaviy hisoblash miqdorining 1 (bir) baravaridan** oshmasligi kerak.

20. Agentlik tizimining har bir xodimi shaxsi bilan bog'liq bayram kunlari (Siyosatning 19-bandida qayd etilgan) munosabati bilan ham boshqa davlat idoralari, jismoniy va yuridik shaxslar vakillaridan har qanday ko'rinishdagi sovg'alar, boshqa moddiy va nomoddiy qimmatliklarni olish taqiqlanadi.

21. Agentlik nomidan xalqaro konferensiyalarda, simpoziumlarda va boshqa xizmatga oid ishbilarmonlik yig'ilishlarda sovg'alar berish Agentlik direktori yoki uning o'rinbosarlari buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

22. Sovg'ani qabul qilishning qonuniyligi to'g'risida shubha tug'ilgan har qanday hollarda xodimlar Korrupsiyaga qarshikurash bo'limiga maslahat so'rab murojaat qilishi lozim.

§3. Xodimlarni tanlash, lavozimdan lavozimga o'tkazish, moddiy rag'batlantirish

23. Agentlik tizimi xodimlarini tanlash, ularni boshqa lavozimga o'tkazish, attestatsiyadan o'tkazish va faoliyatini baholash, shu jumladan mukofot pullarini to'lash, ustama haqlar va boshqa turdagi mukofotlarni belgilash jarayoni barcha xodimlar uchun shaffof, teng va xolis bo'lib, ushbu Siyosatning asosiy tamoyillari va talablariga muvofiq kelishi lozim.

24. Agentlik tizimida rahbar va xodimlarni mukofotlashga asos bo'lib xizmat qiladigan, ular faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini baholash tartibi va mezonlari ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Ushbu ko'rsatkichlar xolis, oshkora hamda xodimlar tomonidan ko'rib chiqish imkoniyati ta'minlangan bo'lishi shart.

25. Har bir xodim o'ziga hisoblangan mukofot puli va (yoki) belgilangan ustama miqdori to'g'risida savol bilan Agentlikning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limiga murojaat qilishi mumkin.

Bunda, Agentlikning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi murojaat qilgan xodimga unga mukofot puli va (yoki) ustama belgilanishi tartibi to'g'risida vijdonan va to'liq ma'lumot berishi lozim.

§4. Tekshirishlarni o'tkazish hamda Agentlik tizimi tashkilotlari faoliyatini o'rganish

23. Turli xil tekshirishlarni o'tkazish hamda Agentlik tizimi tashkilotlarining faoliyatini o'rganishda xodimlar:

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi;

obyektni tekshirish bir nafar xodim tomonidan amalga oshirilmasligi;

sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni soxtalashtirish uchun tekshirish obyekti vakillarining yetarli bilimga ega emasligidan foydalanib qonun hujjatlari normalarini noto'g'ri talqin qilmasligi, tekshirilayotgan obyekt xodimlarini aniqlangan faktlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etish bilan qo'rqitmasligi;

tekshirilayotgan obyektning xodimlariga tahdid qilmasligi;

tekshirish predmetiga kirmaydigan masalalar bilan qiziqmasliklari va hujjatlarni so'ramasliklari;

tekshirish davomida aniqlangan har bir huquqbuzarlik holatlariga qonuniy va professional baho berishlari;

agar tekshirish obyekti vakillari xodimlarga aniqlangan qonunbuzarliklarni yashirish uchun pora yoki biron-bir moddiy va nomoddiy qimmatlik yoki xizmatlarni taklif qilsa, tekshirish guruhi rahbari yoki Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi xodimlarini darhol xabardor qilishlari;

tekshirish obyekti vakillariga axloqiy xulq-atvor tamoyillariga muvofiq xolis munosabatda bo'lishlari shart.

24. O'tkazilgan tekshiruvlar, o'rganishlar va monitoring natijalari yuzasidan kelib tushgan e'tirozlarni ko'rib chiqish uchun komissiya tashkil etiladi.

5§. Kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan o'zaro munosabatlar

25. Agentlik va tizim tashkilotlari ushbu Siyosatning tamoyillari va talablariga zid bo'lgan har qanday to'lovlar va (yoki) shu kabi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni keltirib chiqaruvchi xatti-harakatlarni amalga oshirish uchun mahsulot yetkazib beruvchilarni, pudratchilarni va boshqa uchinchi tomonlarni jalb qilmaydilar.

26. Agentlik va tizim tashkilotlari kontragentlar bilan munosabatlarda o'z faoliyatini amalga oshirishida qonuniylik va shaffoflik tamoyillariga amal qiladilar.

Agentlik va tizim tashkilotlari tanlashning xolis mezonlaridan foydalanishga asoslangan, mahsulot yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa kontragentlarni tanlab olishning haqqoniy, ochiq va shaffof jarayonini hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq sotib olinadigan mahsulotning bahosini aniqlashning shaffof tartibini ta‘minlaydilar.

27. Agentlik va tizim tashkilotlari kontragent bilan o‘zaro hamkorligida:

ehtimoli yuqori bo‘lgan kontragentning ishonchliligini, shu jumladan o‘tmishda korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etganligi, Agentlikning davlat xaridlari to‘g‘risidagi nizomga muvofiq va O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari doirasida Agentlik tizimi xodimlari bilan manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emasligini tekshiradilar;

bo‘lajak kontragentni (*tanlov, tender g‘olibini va to‘g‘ridan- to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid kontragentini*) o‘zining korrupsiyaga qarshi tamoyillari va talablari haqida ular bilan tuziladigan shartnomalar matniga korrupsiyaga qarshi maxsus shartlarni qo‘shgan holda xabardor qiladi va tanishtiradi.

§6. Xayriya va homiylik faoliyati

28. Agentlik va tizim tashkilotlari qonunda nazarda tutilgan hollarda xayriya va homiylikni qabul qilishlari mumkin. Bunday yordamni olgan paytda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, mablag‘larni qonunchilik hujjatlarida va (yoki) shartnomada belgilangan maqsadlar uchun samarali sarflanishi ta‘minlanishi shart, shuningdek bu haqida o‘zlarining rasmiy veb-saytlari orqali jamoatchilikka oshkor qilinishi mumkin.

§7. “Sirli mijoz” tadbiri

29. Agentlik markaziy apparati, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlari tomonidan ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlarining sifati va tezligini, shuningdek haqqoniy va ochiq tanlov natijalariga ko‘ra tanlab olingan mustaqil kompaniyalar tomonidan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishiga moyilligini aniqlash uchun xizmatlarning haqiqiy oluvchilari sifatida alohida nazorat tadbirlari o‘tkaziladi. Xizmatlarni ko‘rsatish jarayonida jalb etilgan mustaqil tashkilotlar bunday xizmatlarning sifati, muddatlari, shartlarini, shuningdek, Agentlik tizimi xodimlarining belgilangan axloq qoidalariga, shu jumladan xodimlarning pora olishga moyilligini belgilab boradi.

30. Agentlik markaziy apparati, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlari o‘tkazilgan “sirli mijoz” tadbirlari to‘g‘risidagi hisobotlarni ko‘rib

chiqadilar va korrupsiya xavfi aniqlangan taqdirda xizmat tekshiruvi tayinlash haqidagi tashabbus bilan chiqadilar.

31. Yuqori turuvchi tizim tashkilotlari uning tarkibiy tuzilmalari xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurash qoidalari va talablariga rioya etilishini nazorat qiladi.

Agentlik markaziy apparati, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlari tasodifiy reydlar, “sirli mijoz” tadbiri o‘tkazish orqali xodimlarning odob-axloq qoidalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlarga rioya qilinishini tahlil va monitoringini amalga oshiradi.

§8. Agentlik va tizim tashkilotlari faoliyatini videotasvirga olish va translyatsiya qilish

32. Agentlik tizimi xodimlarining faoliyatini nazorat qilish uchun xizmat xonalarida video va audio yozuv kameralari joylashtirilishi, ularning yozuvlari mas’ul xodimlar tomonidan doimiy ravishda kuzatib borilishi mumkin.

33. Agentlik va tizim tashkilotlarining rasmiy veb-saytlariga korrupsiya xavfi yuqori bo‘lgan ayrim jarayonlarning onlayn translyatsiyalari joylashtirilishi mumkin (ishga qabul qilishda nomzodlar bilan suhbat va ularni sinovdan o‘tkazish jarayonlari, komissiya yig‘ilishlari va boshqalar).

§9. Ichki idoraviy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi

34. Ichki idoraviy hujjatlar ularda korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon yaratadigan korrupsiyaviy omillar kelib chiqishining oldini olish, aniqlash va istisno qilish maqsadida huquqiy ekspertizadan o‘tkaziladi.

§10. Agentlik va tizim tashkilotlar xodimlariga maslahat berish

35. Agentlik va tizim tashkilotlari xodimlarida korrupsiyaga qarshi amaldagi qonun hujjatlari talablari, ushbu Siyosat qoidalari yoki Agentlikda korrupsiyaga qarshi boshqa chora-tadbirlar va tartib-taomillar bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday savollar bo‘lsa, ular o‘zlarining tarkibiy tuzilma rahbarlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi xodimlariga hamda Agentlikning ishonch telefoniga murojaat qilishlari mumkin.

5-bob. Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar berish

36. Agentlik va tizimi tashkilotlari xodimlari va boshqa shaxslar, xodimlar xatti-harakatlarining qonuniyligi, odob-axloq normalariga muvofiqligi to‘g‘risida shubha tug‘ilsa, shuningdek, korrupsiya va boshqa huquqbuzarlik holatlari sodir

etilishiga gumon yoki sodir etilganligi faktlari bo'lsa, ular bu haqda aloqa kanallari orqali Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga xabar berishlari mumkin.

37. Agentlik o'z vakolatlari va mavjud imkoniyatlari doirasida huquqbuzarlik to'g'risida ishonchli ma'lumot bergan shaxsning maxfiyligini ta'minlaydi (qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

38. Agentlik o'z xodimlarining manfaatlarini himoya qiladi va qasos olishga qaratilgan harakatlarga, shu jumladan ishdan bo'shatish, lavozimni pasaytirish, kamsitish, bosim o'tkazish, Agentlik tizimining boshqa xodimlarining shubhali harakatlari yoki ular tomonidan ushbu Siyosatning korrupsiyaga qarshi talablarini buzish ehtimoli haqida xabar bergan shaxslarning ta'qib qilinishiga yo'l qo'ymasligini kafolatlaydi.

39. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarni quyidagi aloqa kanallari orqali berish mumkin:

Korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan ishonch telefoni (71 200-01-18);

telegramdagi maxsus bot (https://t.me/madaniymerosmurojaat_bot);

Agentlikning rasmiy veb-sayti (<https://gov.uz/madaniymeros/>);

Agentlikning elektron pochta manzili (info@madaniymeros.uz);

to'g'ridan-to'g'ri huquqni muhofaza qilish organlarga.

40. Aloqa kanallariga kelib tushgan barcha xabarlar O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari va Agentlikning ichki hujjatlariga muvofiq mas'ul bo'linma yoki xodim tomonidan xolis tarzda va o'z vaqtida ko'rib chiqiladi.

41. Korrupsiya holati haqida xabar qilgan xodim himoyaga olinadi hamda uni qasddan ishdan bo'shatish, lavozimini pasaytirish, kamsitish, bosim o'tkazish hamda ta'qib qilish kabi holatlarga yo'l qo'yilmasligi kafolatlanadi.

42. Anonim yuborilgan xabarlarda qayd etilgan holatlar bo'yicha qonunchilik hujjatlari talablariga zid bo'lmagan holda dastlabki o'rganish amalga oshiriladi.

Qayd etilgan holatlar o'z tasdig'ini topgan taqdirda, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi tashabbusi bilan xizmat tekshiruvi o'tkaziladi.

43. Agentlik va tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan korrupsiyaviy holat haqida qasddan yolg'on ma'lumot taqdim etilishi odob-axloq qoidalarining buzilishi deb baholanadi hamda unga nisbatan ichki idoraviy hujjatlarga muvofiq tegishli intizomiy jazo chorasi qo'llaniladi.

44. Agentlik tizimida korrupsiya faktlari to'g'risida vijdonan xabar bergan xodimlar, agar bu ma'lumotlar tasdiqlangan bo'lsa, belgilangan tartibda

rag'batlantirilishi mumkin.

45. Barcha aloqa kanallarining ishlashi va olingan xabarlarni qayta ishlash/ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi batafsil ma'lumot Agentlikning korrupsiyaga oid harakatlar to'g'risida axborot berish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va qayta ishlash reglamentida va boshqa shunga o'xshash ichki hujjatlarida aks ettiriladi.

6-bob. Javobgarlik

46. Mazkur Siyosat Agentlik va tizim tashkilotlarining barcha darajadagi xodimlari uchun majburiy harakterga ega bo'lib, korrupsiyaviy holatlarga yo'l qo'ygan taqdirda ular qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

47. Ushbu Siyosat quyidagi hollarda qayta ko'rib chiqilishi hamda unga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin:

korrupsiyaga qarshi kurashish amaldagi siyosat va tartib-taomillarni qayta ko'rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradigan holda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari o'zgarganda;

korrupsiyaga qarshi kurashishda samarasiz nazorat va tartib-taomillar aniqlanganda va Agentlik tizimi faoliyatida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirishga zarurat tug'ilganda;

Agentlikning tashkiliy tuzilmasi va (yoki) vazifalarning bajarish xususiyatlari va boshqalar o'zgarganda.